



BOLALARDA FAOL NUTQNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna

FarDU f.f.b.f.d (PhD)

buzrukova@gmail.com

G'ofurova Robiyaxon Muhammadjon qizi

FarDU magistr

rgafurova990@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada faol nutq tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni faol nutqqa o'rgatish, til tafakkur quroli va muomala vositasi masalasining ilmiy nazariy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, nutq, til elementlari, faol nutq, verbal bosqich, emotsional munosabatlar, ehtiyoj.

Аннотация: В данной статье освещены понятие активной речи и задачи ее развития, сущность активной речи, обучение детей активной речи в дошкольных образовательных организациях, научно-теоретическая значимость вопроса языка как инструмента мышления и средства общения.



Ключевые слова: Общение, речь, языковые элементы, активная речь, вербальный этап, эмоциональные отношения, потребность.

Abstract: This article explores the concept of active speech and the tasks involved in its development. It delves into the essence of active speech and examines the scientific and theoretical significance of teaching active speech to children in preschool educational institutions. The paper also addresses the role of language as a tool for thinking and a means of communication.

Key words: Communication, speech, language elements, active speech, verbal stage, emotional relationships, need.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifasi bolalarda faol so'zlashuv nutqni (dialogik nutq va monologik) rivojlantirishdan iborat. So'zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko'p qirrali. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarda ularga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o'zi ham savollar berishi, suhbat mavzusi bo'yicha izchil javob berish qobiliyati shakllanadi. Nutq – nafaqat muloqot vositasi bo'lib, balki bolalarning aqliy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Nutqning rivojlanishi bolalarning fikrlash, diqqat, xotira, tasavvur va mantiqiy tafakkurini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, nutq orqali bolalar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar, bu esa ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli integratsiyalashishiga yordam beradi. Nutqni rivojlantirish – bolaning yakka tartibdagi ruhiy rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishidagi o'ta murakkab ko'p omilli jarayondir. Bu ijodiy jarayon, ammo u pedagogik rahbarlikni talab etuvchi tasodifiy jarayon emas. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni o'zida milliy



muloqot xulqini, qadriyatli munosabatlarni shakllantirgan, yaxshi nazariy hamda amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis tashkil qilishi va amalga oshirishi lozim. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Faol nutqning rivojlanishi erta bolalik davrida, bola o'zining birinchi so'zlari va iboralarini talaffuz qila boshlagan paytdan boshlanadi. Inson yoshi ulg'aygan sari uning so'z boyligi kengayib, grammatik tuzilmalar murakkablashadi. Biroq, faol nutq hayot davomida yangi bilim va tajriba bilan boyitilgan holda rivojlanishda davom etadi. Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi. Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi. Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolada faol nutq quyidagi bosqichlarda shakllanib, asta-sekinlik bilan rivojlanadi.

Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi.

Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining **ikkinchi bosqichida** uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar.

Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat



bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirishning **uchinchi bosqichida** – uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bolaning nutqning yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi.

Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirish kalitidir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, nutq rivojlanishi orqali bolalar o'zini anglashni va boshqalar bilan aloqa o'rnatishni o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, bolaning o'z-o'ziga ishonchini oshiradi va ijtimoiy ko'nikmalarini yaxshilaydi. Shuningdek, yaxshi rivojlangan nutq bolalarga ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadi, chunki ta'limning ko'plab jihatlarini, jumladan o'qish, yozish va matematikani tushunish nutq bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Q. Shodiyeva "Nutq o'stirish uslubi" darslik "Toshkent-2008.
2. D. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent-2018.
3. Sh. Qodirova "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Termiz- 2018
4. D.Buzrukova "Bolalarda ravon nutqni shakllantirish usullari" NamDU "iqtidorli talabalar ilmiy xabarlar" ilmiy-uslubiy jurnali – 2024-yil 4-son.

